

**O'ZBEKISTON VA MDH DAVLATLARI QONUNCHILIGIDA
MEDIATSIYANI TARTIBGA SOLISHNING QIYOSIY-HUQUQIY
TAHLILI: EVOLYUTSIYA, MODELLAR VA ISTIQBOLLAR**

Odilov Murodjon Muxtorjon o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti Magistranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada nizolarni muqobil hal etish (ADR) tizimining eng istiqbolli institutlaridan biri hisoblangan mediatsiya jarayonining O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi va Belarus Respublikasi qonunchiligidagi huquqiy asoslari tizimli va qiyosiy-huquqiy jihatdan tadqiq etilgan. Sobiq sovet huquqiy tizimi (postsovet huquqiy makoni) merosxo'rlari bo'lgan ushbu mamlakatlarda mediatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos milliy modellari, institutsional yondashuvlari, mediatorlar huquqiy maqomiga qo'yiladigan konseptual talablar hamda mediativ kelishuvlarning ijro etilish mexanizmlari qiyoslangan. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida noprofessional mediatorlik institutining tugatilishi (2025-yil oktyabr) bilan bog'liq so'nggi islohotlar tahlil qilinib, sud-huquq tizimi yuklamasini kamaytirishda xorijiy tajribaning samarali jihatlarini implementatsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: mediatsiya, mediator maqomi, sud vositachiligi, sud yarashuvi, Singapur konvensiyasi, professional mediator, ijro bosqichi, adliya vazirligi nazorati, postsovet huquqi.

KRISH:

Bugungi kunda jahon miqyosida sud-huquq tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlaridan biri — bu davlat sudlarining ish yuklamasini kamaytirish

hamda nizolashayotgan taraflar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni asrab qolgan holda nizolarni hal etishning mosuvchan, tezkor va tejamkor mexanizmlarini joriy etish hisoblanadi. Ushbu tizim xalqaro amaliyotda Nizolarni muqobil hal etish (Alternative Dispute Resolution — ADR) deb atalib, uning markazida mediatsiya instituti turadi.

Mediatsiya — bu kelishmovchiliklarni uchinchi xolis, betaraf va mustaqil shaxs (mediator) ko'magida, taraflarning o'zaro roziligi va konsensusi asosida, ixtiyoriylik hamda maxfiylik prinsiplariga tayangan holda hal qilish jarayonidir. Garchi g'arbiy huquqiy tizimlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya) mediatsiya o'tgan asrning ikkinchi yarmidanoq chuqur ildiz otgan bo'lsa-da, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) makonida ushbu institut nisbatan yangi hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

MDHga a'zo davlatlarning, xususan O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston va Belarusning umumiy jihati shundaki, ularning barchasi sobiq sovet huquqiy tizimining me'moriy va mafkuraviy merosxo'rlari hisoblanadi. Sovet huquqiy doktrinasida har qanday nizoning yechimi faqat davlat (sud yoki davlat arbitraji) monopoliyasida bo'lishi shart degan qarash ustunlik qilgan. Shu sababli, mazkur davlatlarda mediatsiyani huquqiy tartibga solish shunchaki yangi qonun qabul qilish emas, balki jamiyat va huquqshunoslar tafakkurini o'zgartirishga qaratilgan keng miqyosli ijtimoiy islohotning bir qismidir.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, vaqt o'tishi bilan har bir MDH davlati o'zining ijtimoiy-madaniy tabiati, sud tizimining o'ziga xosliklaridan kelib chiqib, turlicha huquqiy modellarni shakllantirdi. Ushbu modellarni qiyosiy-

huquqiy tahlil qilish, ijobiy va salbiy amaliyotlarni o'rganish O'zbekistonda mediatsiya institutining qonunchilik va amaliy bazasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida huquqshunoslik fanida keng qo'llaniladigan prinsiplar va metodlar majmuidan foydalanildi. Xususan:

Qiyosiy-huquqiy metod (Comparative Legal Method): O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni, Rossiya Federatsiyasining 193-FZ-sonli Federal qonuni, Qozog'iston Respublikasining 401-IV-sonli Qonuni va Belarus Respublikasining №58-Z-sonli Qonuni normalari, ulardagi o'xshashliklar va prinsiplar o'zaro solishtirildi.

Tizimli-strukturaviy tahlil: Davlatlar qonunchiligida mediatorlarga qo'yiladigan talablar, mediativ kelishuvlarning huquqiy oqibatlari va sud tizimi bilan o'zaro aloqasi yaxlit bir tizim sifatida o'rganildi.

Statistik va sotsiologik metodlar: Rossiya, Qozog'iston va Belarus Respublikalari Oliy sudlari va rasmiy tashkilotlarining statistik ma'lumotlari tahlil qilinib, qonun normalarining amaldagi real samaradorligi baholandi.

1. Rossiya Federatsiyasida Mediatsiyani Tartibga Solish: "Sud vositachiligi" va Protsessual Evolyutsiya

Rossiya Federatsiyasi MDH davlatlari orasida mediatsiya sohasida alohida va mustaqil qonunchilik poydevorini birinchilardan bo'lib yaratgan mamlakatdir. Bu sohadagi munosabatlar 2010-yil 27-iyuldagi 193-FZ-sonli "Nizolarni vositachi ishtirokida muqobil hal qilish tartibi (mediatsiya tartibi) to'g'risida"gi Federal qonun bilan tartibga solinadi.

Ushbu Qonun mediatsiyani fuqarolik, mehnat, oilaviy va tadbirkorlik munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal etishning ixtiyoriy va maxfiy jarayoni sifatida belgilaydi. Qonunda protsessual muddatlar ham aniq chegaralangan: mediatsiya tartib-taomilining umumiy davomiyligi 180 kundan oshmasligi kerak, agar nizo sud ko'rib chiqishiga o'tgan bosqichda boshlansa, bu muddat 60 kundan oshishi mumkin emas.

Biroq, qonunchilik poydevori 2010-yilda yaratilganiga qaramay, uzoq yillar davomida amaliyotda kutilgan natija bermadi. Rus tadbirkorlari va fuqarolari mediatsiyani sud tizimiga haqiqiy muqobil sifatida tan olmadi. Buni quyidagi rasmiy statistik ma'lumotlar ham yaqqol tasdiqlaydi:

RF Oliy sudi tahlili: 2020-yilda Rossiya iqtisodiy (arbitraj) sudlari tomonidan ko'rib chiqilgan 1 508 226 ta iqtisodiy nizodan atigi 10 tasi (0,0006%) mediatsiya orqali hal etilgan. Umumiy yurisdiksiya sudlarida esa 23 milliondan ortiq fuqarolik ishlari ko'rilgan bo'lsa, ulardan atigi 256 tasi sud tomonidan tasdiqlangan mediativ kelishuv bitimi bilan yakunlangan, xolos.

Ushbu tizimli inqirozni va passivlikni bartaraf etish maqsadida, 2019-yil 26-iyulda Rossiyada "Ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi 197-FZ-sonli inqilobiy qonun qabul qilindi. Ushbu o'zgartirishlar bilan Rossiya huquqiy makoniga "**sud vositachiligi**" (**sud yarashuvi — судебное примирение**) tushunchasi kiritildi.

Sud vositachiligining klassik mediatsiyadan farqi va o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

Subyekt tarkibi: Sud vositachisi (yarashtiruvchisi) sifatida faqatgina **iste'fodagi sudyalar** ishtirok etishi mumkin. Ularning ro'yxati (reyestri) Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi tomonidan yuritiladi (2022-yil holatiga ko'ra, ro'yxatda 330 nafar iste'fodagi sudya mavjud bo'lgan).

Maxfiylik cheklovi: Klasik mediatsiyadan farqli o'laroq, sud vositachiligi jarayoni to'liq maxfiy hisoblanmaydi, chunki u bevosita sud nazorati ostida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy rag'bat: Agar taraflar sud jarayonida o'z nizolarini sud vositachiligi yoki mediatsiya orqali hal qilsalar, ular to'lagan davlat bojining (sud xarajatlarining) 70 foizigacha bo'lgan qismi davlat byudjetidan qaytarib beriladi.

Majburiy ijro kafolati: 2019-yildan boshlab, sud ishi qo'zg'atilishidan oldin tuzilgan mediativ kelishuv notarius tomonidan tasdiqlansa, u **to'g'ridan-to'g'ri ijro hujjati (ijro varaqasi)** kuchiga ega bo'ladi. Ya'ni, agar biror taraf majburiyatni bajarmasa, sudga qayta murojaat qilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri majburiy ijro byurosiga borish imkoniyati yaratildi.

Rossiyada mediatorlar professional va noprofessional toifaga bo'linadi. Noprofessional mediator sifatida 18 yoshga to'lgan, muomala layoqatli va sudlanmagan har qanday shaxs faoliyat yuritishi mumkin. Professional mediator esa kamida 25 yoshda bo'lishi, oliy ma'lumotga ega bo'lishi va mediatorlarni tayyorlash bo'yicha maxsus o'quv kursini tamomlagan bo'lishi shart.

2. Qozog'iston Respublikasining Mediatsiya Modeli: Ijtimoiy-Siyosiy Integratsiya va Markazlar Tizimi

Qozog‘iston Respublikasida mediatsiya sohasidagi munosabatlar Rossiya bilan deyarli bir vaqtda — 2011-yil 28-janvarda “Mediatsiya to‘g‘risida”gi 401-IV-sonli Qonun qabul qilinishi bilan huquqiy tartibga solina boshladi. Biroq, Qozog‘iston modeli o‘zining institutsional tuzilishi jihatidan Rossiyadan ham, boshqa MDH davlatlaridan ham keskin farq qiladi. Qozog‘iston davlati mediatsiyani shunchaki huquqiy mexanizm emas, balki **milliy totuvlik va barqarorlikni ta‘minlovchi ijtimoiy institut** sifatida rivojlantirish yo‘lini tanladi.

Qozog‘iston modelining o‘ziga xos ustunligi uning yirik ijtimoiy-siyosiy institutlar, xususan **Qozog‘iston xalq Assambleyasi** va **Qozog‘iston Respublikasi Kasaba uyushmalari Federatsiyasi** bilan vertikal integratsiyalashganidadir.

“Qozog‘iston xalq Assambleyasi to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, Assambleyaga milliy birlik va ijtimoiy totuvlik sohasida mediatsiya institutini rivojlantirish vazifasi yuklatilgan. Ushbu tizimli yondashuv natijasida:

- ✓ Assambleya huzurida Respublika mediatsiya kengashi, 28 ta hududiy kengash va **503 ta maxsus mediatsiya kabineti** tashkil etilgan.
- ✓ Ushbu kabinetlarda mingga yaqin mediatorlar etnik, hududiy va oilaviy nizolarni sudgacha hal qilish bilan shug‘ullanadi. 2019-yil statistikasiga ko‘ra, Assambleya mediatorlariga kelib tushgan 31 mingta murojaatning 61 foizi mediativ kelishuv imzolash bilan yakunlangan.

Shuningdek, Kasaba uyushmalari federatsiyasi hududiy bo‘linmalarida 17 ta yirik Mediatsiya markazlari ochilgan. Ushbu markazlar mehnat nizolarini hal etishga ixtisoslashgan bo‘lib, natijada Qozog‘iston sudlariga kelib tushayotgan mehnat shartnomalari bo‘yicha nizolar soni yiliga 4-5 foizga kamayishi kuzatilgan.

Biroq, Qozog‘iston modelida ham tizimli muammolar mavjud. Tadqiqotchi olimlar (A. Ramazanov, I. Karipova) ta’kidlashicha, Qozog‘istonda suddan tashqari (mustaqil) mediatsiya markazlari davlat tomonidan moddiy qo‘llab-quvvatlanmaydi. Ular o‘zini-o‘zi moliyalashtiruvchi subyektlar bo‘lganligi sababli, aholi o‘rtasida keng qamrovli axborot-tushuntirish kampaniyalarini olib borishga mablag‘lari yetishmaydi. Buning oqibatida, aholining ko‘p qismi hamon mediatsiyaning huquqiy kuchiga shubha bilan qaraydi va an’anaviy sud formatsiyasini afzal ko‘radi.

Qozog‘istonda sud mediatsiyasi tizimi ham mavjud bo‘lib, unda sudyalarning o‘zi yarashtiruvchi sifatida ishtirok etadi. Ammo amaliyotda sudyalarning muzokaralar olib borish bo‘yicha psixologik va mediativ ko‘nikmalari yetishmasligi sababli, sud mediatsiyasining samaradorligi professional mediatorlarga qaraganda pastroq baholanmoqda.

3. Belarus Respublikasi Modeli: Qat’iy Litsenziyalash va Ijro Protsessidagi Vositachilik

Belarus Respublikasida mediatsiya instituti 2013-yil 12-iyuldagi №58-Z-sonli “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi (2014-yil 24-yanvardan kuchga kirgan). Belarus modeli o‘zining **“imperative” va qat’iy davlat nazorati** ostida faoliyat yuritishi bilan ajralib turadi.

Mediator maqomini olish shartlari bo‘yicha Belarus modeli MDH davlatlari ichida eng yuqori talablarni belgilagan tizim hisoblanadi. Bu yerda mediator faoliyati bilan shug‘ullanish uchun shunchaki xohish yoki o‘quv kursi kifoya qilmaydi. Nomzod quyidagi bosqichlardan o‘tishi shart:

1. Oliy ma'lumotga ega bo'lish (soha cheklanmagan, lekin oliy ta'lim majburiy).
2. Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida mediatsiya sohasida professional tayyorgarlikdan o'tish.
3. Adliya vazirligi huzuridagi **Mediatsiya masalalari bo'yicha Malaka komissiyasining** imtihonidan o'tish.
4. Komissiya qaroriga asosan Adliya vazirligi tomonidan beriladigan maxsus **Mediator guvohnomasi (sertifikati)** olish va Reyestrda kirish.

Belarus modelining ikkinchi muhim jihati — mediatsiyaning protsessual qonunchilik bilan mukammal integratsiyalashganidir. Belarus Xo'jalik protsessual kodeksining 17-bobi "Sud protsessida yarashish tartibi" deb nomlanadi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, Belarus qonunchiligi mediatsiyani nafaqat sudgacha yoki sud jarayonida, balki **sud hujjatlarining ijro etilishi (majburiy ijro) bosqichida ham** qo'llash imkonini qonunan mustahkamlagan.

Xo'jalik protsessual kodeksining 156-moddasiga ko'ra, sud qarori qabul qilinib, ijro ishi yuritilayotgan bosqichda ham taraflardan birining iltimosiga ko'ra sud tomonidan "vositachi" (*примиритель*) tayinlanishi mumkin. Yarashuv tartibining muddati bir oydan oshmasligi kerak. Y.V. Rojkovning amaliy tahlillariga ko'ra, ijro bosqichidagi bunday mediativ vositachilik asosan yirik qishloq xo'jaligi korxonalari, og'ir sanoat zavodlari va banklar o'rtasidagi qarzdorlikni to'lash muddatlarini kelishib olishda o'ta yuqori samara bergan.

Bundan tashqari, hozirgi vaqtda Belarusda mediatsiya institutini jinoyat protsessual qonunchilikka (jinoyat sudloviga) bosqichma-bosqich kiritish —

Restavratsion odil sudlov (Restorative justice) tendensiyasi faol kechmoqda. Shuningdek, Belarus 2020-yil 15-iyulda Mediatsiya natijasida erishilgan xalqaro kelishuv bitimlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini (**Singapur konvensiyasi**) ratifikatsiya qilib, xalqaro tijoriy mediatsiyada ham o'z mavqeini mustahkamladi.

4. O'zbekiston Respublikasida Mediatsiyaning Shakllanishi va 2025-yilgi Konseptual Islohot

O'zbekiston Respublikasida mediatsiyaning huquqiy asoslari nisbatan kech — 2018-yil 3-iyuldagi “Mediatsiya to'g'risida”gi O'RBQ-482-sonli Qonun bilan belgilandi. Milliy qonunimiz mazmunan Rossiya va Qozog'iston tajribalarining ijobiy jihatlari o'z ichiga olgan edi.

Dastlabki modelga ko'ra (2018–2025 yillar oralig'ida), O'zbekistonda mediatorlar ikki toifaga ajratilgan edi:

- **Professional mediatorlar:** Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus tayyorgarlik kursidan o'tgan, professional mediatorlar reyestriga kiritilgan shaxslar.
- **Noprofessional mediatorlar:** Maxsus o'quv kursidan o'tmagan, lekin 25 yoshga to'lgan va mediator vazifalarini bajarishga rozilik bergan shaxslar (amaliyotda bu ko'proq mahalla faollari, oqsoqollar yoki ixtiyoriy shaxslar edi).

Biroq, nonprofessional mediatorlar faoliyatining huquqiy saviyasi pastligi, muzokaralar metodologiyasini bilmasliklari va eng asosiysi — ular tuzgan mediativ kelishuvlarning huquqiy sifati talabga javob bermasligi natijasida ushbu yondashuv o'zini oqlamadi. Noprofessional mediatsiya amaliyotda fuqarolarning institutga bo'lgan ishonchini pasaytiruvchi omil sifatida baholandi.

Konseptual burilish (2025-yil 20-oktyabr): O‘zbekiston Respublikasining qonunchilikka kiritgan so‘nggi fundamental o‘zgartirishlariga muvofiq, **milliy huquqiy tizimdan “noprofessional mediator” tushunchasi va instituti butunlay chiqarib tashlandi.**

Ushbu tarixiy islohot orqali O‘zbekiston mediatsiyani qat’iy professionallashtirish yo‘lini tanladi va o‘z talablari darajasini yuqorida tahlil qilingan Belarus modeliga yaqinlashtirdi. Bugungi kunda O‘zbekistonda mediatorlik faoliyati bilan faqatgina professional asosda, ya’ni:

- ❖ Oliy ma’lumotli;
- ❖ Adliya vazirligi tomonidan litsenziyalangan/tasdiqlangan maxsus o‘quv kursini tamomlagan;
- ❖ Professional mediatorlar reyestriga kiritilgan shaxslargina shug‘ullanishi mumkin.

Ushbu o‘zgarish tizimdagi tarqoqlikni yo‘qotib, mediativ xizmatlar bozorida faqatgina malakali huquqshunos va psixolog-mediatorlar qolishini ta’minlaydi.

XULOSA:

MDH davlatlarining mediatsiya sohasidagi qonunchiligini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda (masalan, Yevropa Ittifoqi va AQShda) nizolarning qariyb 73 foizi mediatsiya orqali sudgacha muvaffaqiyatli hal etilgan bir paytda, postsovet makonida, jumladan O‘zbekistonda ham ushbu ko‘rsatkich o‘ta past darajada qolmoqda.

Buning asosiy sabablari — aholining mediatsiya institutining huquqiy kuchi va afzalliklaridan yetarli darajada xabardor emasligi, sudgacha mediatorga murojaat qilishni rag‘batlantiruvchi protsessual mexanizmlarning mukammal emasligi hamda mediativ kelishuvlarning majburiy ijrosini ta’minlashdagi byurokratik to‘siqlardir.

O‘zbekiston Respublikasida professional mediatsiya tizimini yanada jozibador va samarali qilish, sudlar yuklamasini real kamaytirish maqsadida quyidagi qonunchilik va amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Rossiya Federatsiyasi tajribasini implementatsiya qilish (Majburiy ijro kuchini berish):

Sudgacha bo‘lgan bosqichda (nizo sudga chiqmasdan turib) professional mediator ishtirokida tuzilgan va **notarial tartibda tasdiqlangan mediativ kelishuvlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijro hujjati (ijro varaqasi) maqomini berish** lozim. Buning uchun O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual kodekslariga hamda “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasiga (Ijro hujjatlarining turlari) tegishli qo‘shimchalar kiritish taklif etiladi. Bu fuqarolar va tadbirkorlarga yillar davomida sudlashmasdan, notarial tasdiq orqali o‘z huquqlarini kafolatlash imkonini beradi.

2. Qozog‘iston tajribasidan sotsial modellikni olish:

O‘zbekistonda noprofessional mediatorlik tugatilgan bo‘lsa-da, fuqarolarning professional mediatorlarga kirish imkoniyatini osonlashtirish zarur. Buning uchun yirik davlat organlari (masalan, Savdo-sanoat palatasi, Davlat xizmatlari markazlari yoki Adliya vazirligi binolarida) maxsus **“Professional**

mediatsiya xonalari” tashkil etilib, mediatorlar navbatchiligi yo‘lga qo‘yilishi, aholiga bepul maslahat xizmatlari ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston mediatsiya qonunchiligining 2025-yildagi evolyutsiyasi institutni to‘liq professionallashtirishga xizmat qildi. Endigi qadam — ushbu professional tizimga protsessual ustunliklar va ijro kafolatlarini berish orqali uning amaliy jozibadorligini ta’minlashdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-482-son. 03.07.2018 y. (2025-yil 20-oktyabrdagi o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar bilan).
2. Rossiya Federatsiyasining 27.07.2010 yildagi 193-FZ-sonli “Nizolarni vositachi ishtirokida muqobil hal qilish tartibi (mediatsiya tartibi) to‘g‘risida”gi Federal Qonuni.
3. Qozog‘iston Respublikasining 28.01.2011 yildagi № 401-IV-sonli “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. Belarus Respublikasining 12.07.2013 yildagi № 58-Z-sonli “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Kulkov M., Movsisyan K. *Mediations in the Russian Federation: Overview*. Kulkov, Movsisyan & Partners, 2021.
6. Карипова А.И. Некоторые аспекты сравнительной характеристики медиации в США и Республике Казахстан // Вестник

